



“TASDIQLAYMAN”

Toshkent viloyati statistika
boshqarmasi boshlig'i

Sh.M. Jamoldinov
Sh.M. Jamoldinov

2024- yil “ 8 ” *May*

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma
axborot-tahliliy ishlar bo'limininig**

NIZOMI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Toshkent viloyati statistika boshqarmasi Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limining (keyingi o'rinlarda - Bo'lim deb yuritiladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-114-son qaroriga muvofiq Toshkent viloyati statistika boshqarmasining (keyingi o'rinlarda - Boshqarma deb ataladi) tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to'g'risida”gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi topshiriqlariga, Toshkent viloyati statistika boshqarmasining Nizomiga, mazkur Nizomga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo'lim statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'yicha faoliyatini boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini boshqarma boshlig'i rahbarligida amalga oshiradi. Bo'limga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

Bo'lim o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarmaning tashkiliy tuzilmasiga asosan boshliqning tegishli o'rinbosariga bo'ysunadi.

2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

statistika ko'rsatkichlarining ishonchliligi, haqqoniyligi, tezkorligi va tizimlilikini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish;

Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturining bajarilishini nazorat qilish va uning natijalari bo'yicha boshqarma rahbariyatiga har oy ma'lumot taqdim etish;

Boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlari tomonidan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan qo'llanilayotgan choralar yuzasidan nazorat olib borish va bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtirish, har oy natijalari bo'yicha qo'llanilgan choralar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirib, belgilangan tartibda Statistika agentligi va Boshqarmasi rahbariyatiga taqdim etib borish;

o'z vakolati doirasida oylik, choraklik va yillik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni tayyorlashni ta'minlash, shuningdek foydalanuvchilarga belgilangan tartibda taqdim etish;

statistik, tahliliy va tashkiliy ishlarni boshqarmaning tarmoq bo'limlari tomonidan o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish;

Viloyat statistika tizimini rivojlantirish dasturlarini, statistika faoliyatining joriy va istiqbol rejalarini amalga oshirish bo'yicha ishlarda ishtirok etish;

yig'ma statistik ma'lumotlarni tayyorlash uchun ishlab chiqilgan jadvallar maketi asosida belgilangan tartibda boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlaridan ma'lumotlar yig'ib olish;

iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari sabablari va omillarini tavsiflovchi tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash ishlarini tashkil etish;

davlat organlari uchun axborot va statistik ma'lumotlarni tayyorlash ishlarini tashkil etish;

axborotnomalar, statistik to'plamlar va ma'lumotlarni chop etish bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

7. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) Viloyat statistika boshqarmasi bo'limlari hamda shahar va tuman statistika bo'limlari bilan rasmiy statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirish, statistikani tashkil qilishning samarali tizimini ta'minlash va rasmiy statistika sohasida muvofiqlashtirish va funksional tartibga solish sohasida:

Statistika ishlari dasturiga ko'ra statistik ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, qayta ishlash va umumlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilidi va muvofiqlashtiradi;

shahar va tuman statistika bo'limlari bo'yicha birlamchi statistika ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash tizimini takomillashtirishni ta'minlash yuzasidan boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

tadbirkorlik subyektlari o'rtasida profilaktika ishlarini tashkil etish bo'yicha boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlari faoliyatini nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi;

rasmiy statistika tizimi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va ularni amalga oshirishda ishtirok etadi;

b) ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish sohasida:

Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, metodologik ishlar reja-jadvalining bajarilishi monitoringini ta'minlash;

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi yig'ma statistik va iqtisodiy-analitik ko'rsatkichlarni tegishli tarmoq bo'limlari bilan birgalikda tayyorlaydi va chiqaradi;

statistik ko'rsatkichlarning tezkorligini, ishonchliligini va xolisligini ta'minlash, ularning qulayligi, oshkoraligi va ochiqligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

Statistika ishlari dasturiga asosan statistik axborotnomalar, to'plamlar va nashrlarni tayyorlaydi hamda chop etadi;

c) statistika ko'rsatkichlarining ishonchliligi, haqqoniyligi, tezkorligi va tizimlilikini ta'minlash bo'yicha monitoring yuritish sohasida:

statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi, haqqoniyligi, yaxlitligi va tizimlilikini yuzasidan monitoring yuritish;

shahar va tuman statistika bo'limlari tomonidan amaldagi qonunchilik asosida barcha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan statistikasi sohasidagi qonunchilik talablarini bajarilishini nazorat qilishni amalga oshirilishi yuzasidan monitoring yuritish;

viloyat statistika boshqarmasi tarmoq bo'limlari tomonidan Statistika ishlari dasturida belgilangan ishlarning bajarilishini ta'minlanishi yuzasidan nazoratni tashkil etish;

shahar va tuman statistika bo'limlari tomonidan amaldagi qonunchilik hujjatlariga hamda Statistika agentligi, viloyat statistika boshqarmasining qaror va topshiriqlariga rioya etilishini nazorat qilish;

ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi tuman, shahar statistika bo'limlaridan olingan birlamchi statistika axborotlarini va ma'lumotlar bazasi sifatini tizimli nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qilish.

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibiga rioya etilishi yuzasidan ishlarning tashkil etilishi, statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning mansabdor shaxslariga nisbatan qonunchilik hujjatlari asosida qo'llaniladigan choralar bo'yicha ishlarning yuritilishi yuzasidan faoliyatni tashkil etish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

d) Davlat organlari, yuridik shaxslar, aholini belgilangan tartibda statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash sohasida:

mahalliy hokimiyat, davlat idoralari va foydalanuvchilarning keng ommasi uchun statistik axborotlarning maksimal darajada ochiq-oydinligi va oshkoraligini ta'minlaydi;

milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari hamda hududlarning rivojlanishini, islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, viloyat hududlarini kompleks rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarning amalga oshirilishini, aholi turmush darajasidagi sifat o'zgarishlarini yanada to'liq aks ettiradigan statistik axborotlarni tezkor va sifatli tayyorlashni amalga oshiradi;

viloyatning iqtisodiy rivojlanish holati, iqtisodiyotni rivojlantirish va isloh qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishi holati to'g'risidagi yillik va choraklik statistik va tahliliy materiallarni tayyorlaydi va belgilangan tartibda taqdim etadi;

statistik ko'rsatkichlarni vizuallashtirishning ilg'or usullarini qo'llash yo'li bilan alohida statistik ko'rsatkichlar to'g'risida aholini xabardor qilish choralari ko'radi;

shartnoma asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda statistik, tahliliy, axborot, noshirlik xizmatlarini va Statistika ishlari dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatadi;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini foydalanuvchilarga so'rov asosida taqdim etadi.

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

3-bob. Bo'limning huquqlari va javobgarligi

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlaridan o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

yig'ma ma'lumotlarni tayyorlash, nashr qilish va tarqatish samaradorligini oshirish bo'yicha boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritish;

Boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlari tomonidan Statistika ishlari dasturiga asosan taqdim etiladigan statistik ma'lumotlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish;

yig'ma axborotlarni tayyorlash, nashr qilish va tarqatish sohasida normativ-huquqiy bazani yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha takliflar beradi;

o'z vakolati doirasida Statistika ishlari dasturiga muvofiq statistik ma'lumotlarni tayyorlash muddatlariga amal qilinishini nazorat qilish;

Bo'lim faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar va yig'ilishlarda ishtirok etish.

Boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlarida statistika faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha Boshqarma boshlig'iga takliflar kiritish;

Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha ishlar ijrosini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

yuridik va jismoniy shaxslarning Bo'lim faoliyatiga oid bo'lgan masalalar bo'yicha murojaatlari va so'rovlarini ko'rib chiqish va ularga javob tayyorlash.

9. Bo'lim quyidagilar uchun javobgar:

o'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi axborot, tahliliy va boshqa materiallarni tayyorlash;

rasmiy statistika prinsiplariga amal qilish;

bo'lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq mehnat va ijro intizomini ta'minlash.

4-bob. Bo'limning tuzilmasi

10. Bo'lim tuzilmasi bo'lim boshlig'i va 2 nafar bosh mutaxassislarni o'z ichiga oladi.

11. Bo'lim ishiga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

12. Bo'lim boshlig'i va bo'lim mutaxassislari Toshkent viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

13. Bo'lim yig'ma tezkor ma'lumotlarni va indikator ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha quyidagilarni amalga oshiradi:

Toshkent viloyati bo'yicha, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi yig'ma statistik axborotlarni tegishli tarmoq bo'limlari bilan birgalikda tayyorlash;

yig'ma statistik ko'rsatkichlar asosida oylik, choraklik va yillik tezkor ma'lumotlarni umumlashtirish va tarqatish;

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolar va tashkilotlarni belgilangan tartibda statistik axborotlar bilan ta'minlash;

yig'ma statistik ma'lumotlarni shakllantirish va tarqatish ishlarini takomillashtirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlariga yig'ma statistik ma'lumotlar va asosiy ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun maketlarini tayyorlash;

Statistika dasturiga va boshqarma rahbariyati topshirig'iga muvofiq, statistik axborot va statistik nashrlarni shakllantirish;

yig'ma statistik ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha shahar va tuman statistika bo'limlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

14. Axborot-tahliliy ishlarni muvofiqlashtirish va axborotnomalarni tayyorlash bo'yicha quyidagilarni amalga oshiradi:

Statistika dasturiga asosan tegishli tarmoq bo'limlari bilan birgalikda statistik axborotnomalarni o'z vaqtida va sifatli chop etilishini ta'minlash;

Toshkent viloyati bo'yicha, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi yig'ma statistik axborotlarni tegishli tarmoq bo'limlari bilan birgalikda tayyorlash;

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolar va tashkilotlarni belgilangan tartibda axborot-tahliliy ma'lumotlar va axborotnomalar bilan ta'minlash;

Statistika dasturiga va boshqarma rahbariyati topshirig'iga muvofiq, axborot-tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish;

axborot-tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlariga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

5-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish

15. Bo'limning ishi O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni, Statistika boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, boshqarma nizomi va mazkur Nizomga, Viloyat statistika boshqarmasi boshlig'ining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek Statistika boshqarmasining ish rejalari, bo'limning ish rejalari va bo'lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Xodimlarning funksional vazifalari bo'lim boshlig'i tomonidan yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

16. Bo'lim boshlig'i:

Bo'limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, bo'lim mutaxassislarining ishini tashkil qiladi, bo'limga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo'limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish va jazolash choralari bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi va rahbariyatga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

Bo'limning ish rejasi loyahasini ishlab chiqadi va Statistika boshqarmasi boshlig'iga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Statistika boshqarmasining yig'ilishlari va majlislarida, shuningdek Statistika boshqarmasi rahbariyatining topshirig'iga binoan bo'lim tasarrufiga kiruvchi masalalar bo'yicha kengashlar faoliyatida ishtirok etadi;

Statistika boshqarmasi boshlig'i va uning o'rinbosarlarining topshiriqlariga muvofiq tahliliy va umumlashtiruvchi materiallarni tayyorlaydi, qo'yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini ta'minlaydi;

ish yuritish, berilgan topshiriqlarni bajarilishini nazorat qiladi, xodimlarning rasmiy hujjatlar bilan ishlash va ularni saqlash tartibiga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash;

Statistika boshqarmasining va bo'limning joriy va istiqbol ish rejalari muvofiq bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tahliliy va boshqa materiallarni o'z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta'minlaydi;

Bo'lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to'ldirish choralari ko'radi;

Bo'lim kadrlari zaxirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta'minlaydi;

Bo'lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo'riqnoma berish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazadi;

Bo'lim boshlig'i vaqtinchalik bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bo'lim bosh mutaxassisi bajaradi.

lavozim yo'riqnomasida nazarda tutilgan vazifa va majburiyatlarni lozim darajada va o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

17. Bo'lim bosh mutaxassisi:

statistika boshqarmasi bo'limlari bilan hamkorlikni tashkil qilish uchun shaxsan javob beradi;

bo'limga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda mutaxassislar tomonidan ma'lumotnoma, tahliliy, statistik va boshqa materiallarni sifatli va o'z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi;

bo'lim mutaxassislari tomonidan statistik ko'rsatkichlarning shakllanishini muvofiqlashtiradi, erishilgan natijalarning doimiy monitoringini yuritadi;

Bo'lim boshlig'i bilan birgalikda bo'limlar faoliyatini takomillashtirish va statistika dasturini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

bo'lim faoliyatini tashkil etish va mehnat intizomini mustahkamlash bo'yicha ishlarni mukammallashtirishni tashkil qiladi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar va uchrashuvlarda bo'lim nomidan qatnashadi va h.k.

lavozim yo'riqnomasida nazarda tutilgan vazifa va majburiyatlarni lozim darajada va o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

18. Bo'lim yetakchi mutaxassisi:

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjatlar loyihalarining sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

statistik va tahliliy ma'lumotlarni to'plash masalalari bo'yicha tarmoq bo'limlari va hududiy statistika organlari bilan hamkorlik qiladi;

Davlat boshqaruvi organlari uchun axborot, statistik va boshqa ma'lumotlarni tayyorlash ishlarini tashkil qiladi;

statistik to'plamlar, axborotnomalar va boshqa statistik nashrlarning ko'rinishi, maketlarining tuzilishi va muqovasini ishlab chiqishni tashkil qiladi;

yig'ma statistik va tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida tarmoq bo'limlari va hududiy statistika organlari uchun jadvallar maketini ishlab chiqadi;

statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarining so'rovlarini o'rganib chiqib, statistik nashrlar, axborotnomalar va boshqa axborot-tahliliy ma'lumotlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

kelib tushgan murojaatlar bilan ishlaydi va bo'lim ish yuritishida ishtirok etadi;

Toshkent viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari bo'yicha axborot-tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash ishlarini amalga oshiradi;

Statistik nashrlarni ishlab chiqish va tarqatish, elektron nashrlarni tarqatish ishlarini amalga oshirishda zamonaviy tajriba va tushunchalarni o'rganib boradi;

Statistika boshqarmasi bo'limlari va hududiy statistika organlari tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarni tahlil qiladi va umumlashtiradi hamda zarur tahliliy ma'lumotlar va xulosalar tayyorlaydi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma bo'limlari va hududiy statistika organlariga maslahat yordami ko'rsatadi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

lavozim yo'riqnomasida nazarda tutilgan vazifa va majburiyatlarni lozim darajada va o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.